



O'ZBEK TILIDAGI TURIZM TERMINLARINING MORFOLOGIK VA SEMANTIK TAHLILI

Nurbuvayeva Nodiraxon Kenjaboy qizi

Andijon davlat chet tillari instituti 1- bosqich talabasi

@nnurbuvayevagmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d., prof. M.Kurbanov

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi turistik terminlarning morfologik hamda semantik jihatlarini tahlil qilingan. Unda terminlarning tuzilish xususiyatlari, so'z yasash modellari hamda ularning ma'no o'zgarish jarayonlari yoritilgan. Maqolada xorijiy tillardan kirib kelgan terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi ham ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalari turizm terminologiyasini rivojlantirish va uni yagona tizimga keltirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: turizm, terminologiya, morfologiya, semantika, o'zbek tili, tadqiqot, tuzilish, ma'no.

Til ma'naviy me'rosimizni asrash va boyitishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir soha yoki hodisaning o'tmishi ham, hoziri ham va kelajagi ham til bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda tilshunoslikning boshqa sohalari kabi terminologiya sohasi ham tilshunoslik rivojida o'zining o'rniga ega. XVIII asrda texnologiya va kommunikatsiyaning bir paytda sezilarli rivojlanishi natijasida terminologiya ko'plab rivojlanishlar bilan bog'liq bo'lgan ba'zi qiyinchiliklarni yengish uchun asosiy vosita sifatida xizmat qildi. Faqat XX asrda atamashunoslik ilmiy yo'nalishiga va ijtimoiy ahamiyatga ega fan sifatida tan olindi [1]. Turizm terminologiyasi ham ayni damda jadal rivojlanib borayotgan terminlar tizimidan biridir. Respublikamizda turizmga katta e'tibor qaratilib kelinayotgani sababli turizmga oid terminlar salmog'i kundan kunga kengayib bormoqda. Aynan shu terminlarning ma'no va tuzilishini o'rganish esa bu sohani yanada takomillashtirish va rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.



So'nggi yillarda turizm terminologiyasiga oid bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Tilshunos olimlar terminlarning kelib chiqishi, o'zlashuv jarayoni va ularning o'zbek tilidagi ishlatilish xususiyatlarini o'rganib kelmoqdalar. Jumladan, S.Mirbabayeva turizm sohasidagi mehmonxonaga oid terminlarning ingliz tilida va o'zbek tilida qanday shakllanganligi, rivojlanish bosqichlari, terminlarning umumiy xususiyatlari va ularning tasniflanishini tahlil qilgan. Uning fikricha ingliz tilidagi turistik terminlar ko'proq murakkab so'zlar va qo'shma fe'llar orqali yasaladi, o'zbek tilida esa ular so'z birkmalari bilan yoki izohli shakllar orqali ifodalanadi, bu esa matn uzunligini oshiradi va aniqlikni saqlaydi. Bundan tashqari u ba'zi terminlar ma'no jihatdan o'zbek tilida to'liq ekvivalentga ega bo'lmaganligi sabab, tobora o'zbek tiliga aslicha o'zlashib borayotganini aytib, bunday so'zlarga inglizcha *booking, lobby, reception* kabi so'zlarni misol qilib keltiradi [2]. M.Yuldashev ham gastronomik turizmga oid tadqiqotlar olib borgan bo'lib, u ham o'zbek tilidagi turistik terminlarning semantik ma'nosini kengaytirib, izohli yoki birikma shaklda ifodalanishini aytib o'tadi [3].

Bundan tashqari, Z. Umarova ham turistik terminlar semantikasi borasida ilmiy ish olib brogan bo'lib, u turizm terminlarini ma'no jihatdan guruhlariga bo'ladi. Masalan, "xizmat", "joylashtirish", "transport", "fasllar/tur turlari" kabi. Ushbu guruhlar ichida so'zlar ma'no jihatdan yaqin bog'lan bo'lishi, lekin tarjimada yoki kontekstlarda farqlanishi mumkinligi ta'kidlanadi. Z. Umarova "joylashtirish" bo'limiga *mehmonxona, yotoqxona, dam olish maskani* kabi so'zlarni kiritib, ushbu terminlarning "joylash joyi" semantik maydoniga kirishini, ma'nosi joylashish va qulaylik bilan bog'liqligini yoritadi. "Xizmat ko'rsatish" bo'limiga esa *ovqatlantirish, gid, tashish xizmati* kabi terminlarni kiritadi va ularga ma'no juhatdan xizmat turi, mijozga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq deya izoh beradi. Umarova "tashish" bo'limiga parvoz, dengiz sayohati, olib borish xizmati terminlarini misol keltiradi va bu guruhdagi terminlar transport turi yoki sayohat usuliga ko'ra ajratilishini ta'kidlaydi. "Faoliyat va



tajriba” bo‘limiga esa piyoda sayohat, diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish kabi so‘zlarni kiritib, bu terminlar sayyohning faoliyat yoki tajribasiga asoslanishini aytib o‘tadi [4]. Bunga qo‘shimcha tarzda Z. Umarova turistik terminlarda polisemiya hodisasining ham kuzatilishini ta’kidlab o‘tadi va bu kontekstga bog‘liqligini aytadi [5].

Ushbu tadqiqot davomida o‘zbek tilidagi turizm terminlarining morfologik tuzilishi hamda semantik xususiyatlari har tomonlama tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasi terminlari o‘zbek tilining leksik tizimida nisbatan yangi qatlam hisoblanadi va u xalqaro aloqalar, iqtisodiy hamkorlik, hamda madaniy almashinuv jarayonida faol rivojlanib bormoqda. Agarda turistik terminlarni morfologik jihatdan ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbek tilidagi turizm terminlari tarkiban 2 asosiy guruhga bo‘linadi:

1. *O‘zlashma terminlar* – turizm, marketing, hotel, servis, marshrut, reys kabi so‘zlar xalqaro terminologik tizimdan kirib, fonetik va morfologik jihatdan o‘zbek tiliga moslashgan.

2. *Milliy asosda yasalgan terminlar* – sayyohlik, yo‘nalish, dam olish maskani, madaniy sayohat kabi birliklar esa o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida shakllangan.

Ko‘pgina terminlar -chi, -lik, -kor, -iy kabi so‘z yasovchi affikslar orqali yasaladi. Masalan, *sayyoh-sayyohlik, tur-turizm, turist-turistik*. Bu esa o‘zbek tilining morfologik tizimi xalqaro terminlarni milliylashish jarayoniga faol moslashayotganini ko‘rsatadi.

Semantik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm terminlari ko‘p hollarda ma’no kengayishi, torayishi va metaforik o‘zgarish hodisalari orqali rivojlanadi. Masalan, *yo‘nalish* so‘zi dastlab “*harakat chizig‘i*” ma’nosini bildirgan bo‘lsa, hozirda u “*sayohat marshruti*” ma’nosida ishlatiladi. *Paket* so‘zi esa ingliz tilidagi *package* atamasidan o‘zlashib, “*tur xizmatlari majmuasi*” ma’nosini olgan.



Ba'zi terminlar esa semantik parallelizm asosida ishlatiladi, ya'ni bir so'z ikki xil ma'noda qo'llaniladi. Masalan, *ekoturizm* atamasi bir tomondan "*tabiatni asrashga yo'naltirilgan sayohat*", ikkinchi tomondan, "*ekologik barqarorlikni targ'ib qiluvchi turizm turi*" ma'nosini bildiradi.

O'zbek tilidagi turizm terminlari morfologik jihatdan xalqaro va milliy elementlarning uyg'unlashuvi natijasida boyib bormoqda. Semantik jihatdan esa bu terminlar jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni bevosita aks ettiradi. Turizm terminologiyasining tildagi faolligi uning xalqaro muloqot vositasi sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi turizm terminlari zamonaviy til tizimining eng faol rivojlanayotgan qatlamlaridan biridir. Ular xalqaro tajriba, iqtisodiy aloqalar va madaniy integratsiya jarayonlari ta'sirida shakllanib, til leksikasining boyishida muhim o'rin egallaydi. Morfologik jihatdan turizm terminlari xalqaro terminologiyadan o'zlashgan birliklar va o'zbek tilining ichki so'z yasash imkoniyatlari asosida yaratilgan yangi so'zlardan iborat. Xususan, turizm, marshrut, marketing, servis kabi so'zlar xorijiy manbalardan kirgan bo'lsa, sayyohlik, yo'nalish, dam olish maskani kabi birliklar milliy til imkoniyatlari asosida paydo bo'lgan. Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, turizm terminlari ko'pincha ma'no kengayishi, torayishi va metaforik o'zgarish jarayonlari orqali rivojlanadi. Bu jarayon sohada yangi tushunchalar va xizmat turlarining paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir. Umuman olganda, o'zbek tilida turizm terminlari tizimi xalqaro leksik elementlar va milliy til birliklarining uyg'unlashuvi asosida shakllanmoqda. Bu soha leksikasini ilmiy jihatdan o'rganish, tizimlashtirish va normativ asosda boyitish o'zbek tili terminologiyasining rivojiga salmoqli hissa qo'shadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rey, Alain. "Essays on terminology". – John Benjamins Publishing Co. Amsterdam, Netherlands. 1995. P. 49
2. Mirbabaeva S. S. Ingliz va o'zbek tillarida mehmonxona terminologiyasi va turizmning rivojlanish bosqichlari. – International Journal of Education, Social Science & Humanities, Vol. 13, Issue 09, September 2023. – FARS PUBLISHERS.
3. Yuldashev, M.(2025).Ingliz va o'zbek tillarida gastronomic turizm terminlarining strukturaviy –semantik, funksional-pragmatik o'ziga xosliklari. Qo'qon DPI Ilmiy Xabarlar Jurnali, 5(3).
4. Umarova, Z . (2023). Ingliz va o'zbek tillarida turizm leksikasining leksik-semantik xususiyatlari. – Journal of Philology and Education, Termiz Davlat Universiteti.
5. Umarova, Z. (2023). O'zbek tilidagi turizmga oid so'z va atamalarning leksik-semantik xususiyatlari tasnifi. – International Conference Proceedings, Internconf.